

AMIR TEMUR – BUYUK DAVLAT ARBOBI

*TDTU Qo'qon filiali**3-24-iqtisodiyot guruh talabasi**Inomov Jamshid Baxtiyorjon o'g'li**O'qituvchi: N.A.Sharipova*

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk davlat arbobi, Sohiqiron Amir Temur qisqacha hayot yo'li va buyuk davlatga asos solgani haqida so'z boradi. Shuning uchun davlat boshqaruviga doir "Temur – tuzuklari" siyosiy va harbiy faoliyati mardonavor janglari aks etgan. Buyuk davlat arbobi Amir Temur tajribasini chuqur o'raganib, amalda buyuk bobolarimiz tajribasidan unumli foydalilanilayotganining isboti sifatida ko'rish mumkin.

Kalit so'zlar: Buyuk, davlat, sarkarda, ilm-fan, shoir, qo'shin, madaniyat, shajara, harbiy yurishlar, kuch -qudrat, janglar, adolatli tamoyillar

Amir Temur (to'liq ismi Amir Temur ibn Amir Tarag'ay ibn Amir Barqul) 1336-yil, 9- aprel Kesh hozirgi (Shahrisabz) yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'I - o'rta asrning yirik davlat arbobi, buyuk sarkarda, kuchli, markazlashgan davlat asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysi. Amir Temurning onasi Takina xotun Buxorolik. Otasi Amir Tarag'ay esa Barlos urug'inining oqsoqollaridan hamda Chig'atoy ulusining e'tiborli beklaridan hisoblangan. Temurning shaxsiyati shakllanishiga va kamolot darajasiga yetib borishida uning otasi Tarag'ay bohodir va birinchi ustozlari Mulla Alibek, Samarqandning mashhur so'fi va olimi Shayx Shamsiddin Kulollarni xizmatlari katta bo'lgan. Yosh Temur boshlang'ich ilm, ayni holda harbiy fanlar, diniy ilmlarni "Qur'oni Karim" hifz (yod olgan) etgan. Amir Temurning yoshligi maxsus murabbiylar nazorati ostida chavandozlik, ovchilik, kamondan nishonga o'q uzish, boshqa turli mashq harbiy o'yinlar bilan mashg'ul bo'lgan. Amir Temur hayoti va faoliyatida ikki davr yaqqol ko'zga tashlanadi. Birinchi davr (1360-1385) Movaunnahrni mo'gul xonligidan ozod

qilib yagona markazlashgan davlat tuzish va o'zaro urushlarga barham berish. Ikkinchidavrsi (1386-1405) ikki yillik, uch yillik, besh yillik deb ataluvchi va boshqa mamlakatlarga yurishi bilan xarakterlanadi. Amir Temur ko'p janglar qildi va bujanglar davomida Egey va O'rta yer dengizidan to Hindistonning g'arbi, Mo'g'uliston Xitoygacha Ural tog'lari Moskva ostonasi, Denepr bo'lgan hududlarni zabit, eta oldi. O'z harbiy yurishlari natijasida 27 ta mamlakatni o'ziga bo'ysundirdi. O'z sultanati siyosatini tasavvuf asosiga qurgan Temur adolat bayrog'ini baland ko'tarib xalqnni quruq qonun - qoidaga emas, balki insoniy tartib- intizomga bo'ysunishga chaqirgan. Chunki Temur insoniy tartib- intizimga ilohiy tus berib, uni muqaddas deb biladi va shuning uchun ham yomomlikni maqsad qilgan. Kishilarni jilolovchi va yaxshilik yo'lida jafo chekuvchilarn quvvatlovchi har qanday podsho va hokimga bo'ysunish kerak deb hisoblaydi. Shunday qilib Temur Samarcandga qaytadi. "Temur tuzuklari" asarida keltirilgan quyidagi dalillar orqali biz uning zafarlari va o'sha davrda sharqda mavjud bo'lgan sulolar haqida anchagina ma'lumotga ega bo'lamiz. Asarning nafaqat harbiy, balki davlatni idora qilish masalalarida doir ma'lumotlar ham talaygina bu uning qiymatini yanada oshiradi.

Amir Temur hukmdor uchun qo'yidagi o'n ikki xislat zarurligini va bu xislatlarning birortasiga amal qilinmasa sultanat ishlariga putur yetishi mumkinligini tarixiy misollar bilan isbot qilib bergen edi. A.Temur hukmdor birinchidan o'z so'ziga ega bo'lishi, ikkinchidan adolatpesha bo'lishi, uchinchidan har ishda faqat o'zi hukm chiqarishi, to'rtinchidan qarorida qat'iy bo'lishi, beshinchidan hukmi joriy etilishi, oltinchidan podsholik ishlarini har kimga topshirib qo'ymasligi, yettinchidan ko'pchilikning fikrini eshitishi, sak qizinchidan shoshmasdan mulohaza bilan ish yuritishi, to'qqizinchidan sipohu, raiyatni umid va qo'rquv orasida saqlashi, o'ninchidan barcha ishni o'z erkicha qilishi, o'n birinchidan o'z ishlariga birovni sherik qilmasligi va o'n ikkinchidan davlat ishlarini maxfiy saqlab boshqalardan ogoh va hushyor bo'lishligi lozimligini alohida o'qtirgan edi. Amir Temur o'zi yashab turgan jamiyatni eng yetuk ijtimoiy tizimga aylantirish, farovon hayot qurish maqsadagina kurashib

qolmay, balki bu g'oyalarning butun dunyoda tantana qilishiga ham ishongan edi. Faqat shu maqsaddagina u harbiylik libosini kiygan edi. U anashunday maqsadlarda jahongirlik qilgan har bir davlat boshlig'i asosan to'rt narsani xotirasinida saqlash kerakligini uqtiradi: Birinchidan, qaysi mamlakatni zabit etmoqchi bo'lsa, to'g'ri tadbir va kengash bilam ish tutish : ikkinchidan, xatoga yo'l qo'ymaslik uchun har bir ishni ko'p o'ylab sergaklik ehtiyyotkorlik bilan qilish uchinchidan o'z atrofida aslzoda er yigitlarni (amirlarni) to'plash va birlashtirish to'rtinchisi bugungi kunni ishini ertaga qoldirmaslik.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, buyuk sarkarda Amir Temurning davlat boshqaruv sohasida, hamda ichki va tashqi siyosatda amalga oshirilgan islohatlari o'z davrida uning saltanatini yanada mustahkam bo'lishiga olib kelgan. Hozirgi kunda kundan – kun gullab – yashnab borayotgan Mustaqil O'zbekiston Respublikasi amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohatlar ham davlat boshqaruv sohasidamalakatimizning ertangi kuniga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlab buyuk davlat arbobi Amir Temur tajribasini chuqr o'rjanib amalda buyuk bobolarimiz tajribasidan unumli foydalilanayotgan isbotidir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Azamat Ziyo O'zbek davlatchiligi tarixi T: 1996
2. Amir Temur . "Temur tuzuklari"- T : Ilm-ziyo-zakovat, 2020-B 131
3. Ergashev Q . O'zbekiston tarixi. -T; G'afur G'ulom, 2015- b 214
4. Shamsutdinov R . Karimov. Sh Hoshimov s . Vatan tarixi T: Sharq 2016 -b 454
5. Ahmedov B . Sohibqiron Temur (hayoti va ijtimoiy - siyosiy faoliyati) T: 1996
6. Amir Temur o'g'itlari T: "Navro'z" 1992
7. Ibn Arabshoh Amir Temur tarixi 2 jildlik . T: "Mehnat" 1992
8. Mo'minov I . Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli
9. Amir Temur Ko'ragoni . Zafar yo'li ; T : "Nur "1992
10. Bo'riboy Ahmedov "Amur Temurni yod etib"

11. Sharipova Nargizaxon Abduqaxxorovna. O‘zbekistonda pedagogik bilim yurtlarining shakllanish jarayoni (1945-1965 yillar)/ Vol. 4 No. 1 (2023): SCIENCE PROMOTION Conference
13. Sharipova Nargizaxon Abduqaxxorovna. XX asrning 40-80 yillarda Farg‘ona vodiysi o‘qituvchilarining jismoniy hordiq chiqarish imkoniyatlari/ Vol. 2 No. 16 (2023): Educational Research in Universal Sciences (ERUS)